



SOCIAL, ECONOMIC AND CULTURAL LIFE DURING THE MANGIT DYNASTY

Olmakhon Saidovna Khaitova

*Candidate of Historical Sciences, Professor
Navoi State Mining and Technology University*

Odiljon Jamshid Baxriddinov

*Assistant
Navoi State Mining and Technology University*

Sherzod Shuhratovich Babayorov

*Assistant at the “Department of Psychology”
Bukhara State Pedagogical Institute*

ABOUT ARTICLE

Key words: Mangit dynasty, Emir, Said, Haji, rayat, slavery, Bukhara, Sadriddin Aini, Mahmudhoja Behbudi.

Received: 30.05.25

Accepted: 01.06.25

Published: 03.06.25

Abstract: This article highlights the social life of the Emirate of Bukhara, the stratigraphic structure of the population, the cultural and economic life of the Emirate of Bukhara during the Mahgit dynasty, which is important in the history of our country. It provides information about the traditions and customs and education of the Magnitsky period.

MANG‘ITLAR SULOLASI DAVRIDA IJTIMOIY, IQTISODIY VA MADANIY HAYOT

Olmaxon Saidovna Xaitova

*tarix fanlari nomzodi, professor
NDKTU “Ijtimoiy-gumanitar fanlar va jismoniy tarbiya”
kafedirasi*

Odiljon Baxriddinov

*NDKTU “Ijtimoiy-gumanitar fanlar va jismoniy tarbiya”
kafedirasi assistenti*

E-mail: odiljonbaxriddinov28@gmail.com

Sherzod Shuhratovich Babayorov

BuxDPI “Psixalogiya kafedirasi” assistenti

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Mang‘itlar sulolası, amir, saidlar, xojalar, Ra’iyat, qulchilik, Buxoro, Sadriddin Ayniy, Mahmudxo‘ja Behbudi.

Annotatsiya: Mazkur maqolada yurtimiz tarixida muhim ahamiyatga ega bo’lgan sulola mahg‘itlar sulolası davridagi Buxoro amirligining ijtimoiy hayoti, aholining tabaqaviy tuzulishi, madaniy va iqtisodiy yashash hayoti yoritilgan. Mang‘itlar davri urf-odat va an’analari va ta’limi haqida ma’lumotlar berilgan.

СОЦИАЛЬНАЯ, ЭКОНОМИЧЕСКАЯ И КУЛЬТУРНАЯ ЖИЗНЬ ВО ВРЕМЕНА ДИНАСТИИ МАНГЫТОВ

Олмахон Сайдовна Хаитова

кандидат исторических наук, профессор

НГГТУ "социально-гуманитарные науки и физкультура"

Одилжон Жамишидович Бахридинов

НГГТУ ассистент кафедры

"социально-гуманитарные науки и физкультура"

Шерзод Шухратович Бабаяров

Ассистент кафедры психологии

Бухарского государственного педагогического института

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Династия мангитов, Эмир, Саиды, Ходжи, раят, рабство, Бухара, Садриддин Айни, Махмудходжа Бехбуди.

Аннотация: В данной статье освещается общественная жизнь Бухарского эмирата, стратиграфическое устройство населения, культурная и экономическая жизнь Бухарского эмирата во времена династии мангитов, имеющей важное значение в истории нашей страны. Даётся информация о традициях и обычаях и образовании мангитского периода.

Kirish

Mang‘itlar sulolası hukmronligi davri (1756–1920) Markaziy Osiyo, xususan Buxoro amirligi tarixida muhim siyosiy va ijtimoiy bosqichlardan biri bo‘lib, ushbu davrda shakllangan davlat tuzilmasi, ijtimoiy qatlamlar o‘rtasidagi munosabatlari, iqtisodiy faoliyat turlari va madaniy-madrasaviy tizimlar xalq hayotining barcha jabhalariga chuqur ta’sir ko‘rsatgan. Bu davr ijtimoiy munosabatlari qat’iy vertikal ierarxiya asosida barpo etilgan bo‘lib, aholining kundalik turmushi, to‘y-azodagi urf-odatlar, diniy e’tiqodlar va mehnat faoliyatlarida o‘z aksini topgan.

Buxoro amirligi jamiyatida amir va uning saroy atrofidagilar, diniy tabaqalar (sayyid va xojalar), hunarmandlar, dehqonlar va qul holatidagi kishilar o‘rtasida keskin ijtimoiy tabaqalanish mavjud bo‘lgan. Bu tabaqaviy farqlar har bir ijtimoiy guruhning huquq va majburiyatlarida,

iqtisodiy imkoniyatlarida va jamiyatdagi mavqeida yaqqol namoyon bo‘lgan. Ayniqsa, oddiy aholi – raiyat sinfi davlatning asosiy soliq yukini ko‘tarib, imtiyozsiz hayot kechirgan.

Shuningdek, bu davrda xalq urf-odatlarining, xususan to‘y va aza marosimlarining ijtimoiy ongga ta’siri kuchli bo‘lib, ular jamiyatdagi axloqiy nazorat vositasi sifatida ishlataligan. Biroq XIX–XX asr boshlariga kelib, Mahmudxo‘ja Behbudi, Sadriddin Ayni kabi jadid ma’rifatparvarlari bu holatni tanqid ostiga olib, diniy mutaassiblik, iqtisodiy notenglik va jaholat ildizlarini ohib berishga harakat qilganlar.

Mazkur maqolada Mang‘itlar sulolasi davridagi Buxoro amirligi jamiyatining ijtimoiy tuzilmasi, iqtisodiy hayoti, urf-odatlar tizimi va ularning manbalardagi aks etish shakllari tarixiy va manbashunoslik asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – amirlik davri ijtimoiy munosabatlarining murakkab mohiyatini ohib berish va uning zamonaviy ijtimoiy tafakkur shakllanishidagi o‘rnini aniqlashdan iborat.

Muhokama va natijalar.

Jamiyatning tabaqaviy tuzilishi va ijtimoiy harakatlanish cheklovleri

Mang‘itlar hukmronlik qilgan Buxoro amirligi tarixi faylasuf, etnograf, adabiyotchilar va boshqa tadqiqotchilar tomonidan anchagina o‘rganilgan. Shuni aytish joizki, Mang‘itlar davri(1756-1920) manbalarini ilmiy- nazariy, metodologik-uslubiy, siyosiy-mafkurviy jihatdan bir xil baholab bo‘lmaydi. Asarlarda ifoda etilgan muammoga nisbatan berilgan bahoni hisobga olib ularni ikki guruhga bo‘lish mumkin:

- Birinchi guruhga kiruvchi adabiyotlar sho‘ro, mustabid tuzumi davrigacha ya’ni Buxoro amirligi sho‘rolar davlati tomonidan bosib olinganga qadar yaratilgan asrlar.
- Ikkinci guruhga esa mustabid tuzumi davrida yaratilgan asarlar kiradi.

Birinchi guruhga kiruvchi asarlarning bir qismi tarixchi, yozuvchi shoirlar qalamiga mansub bo‘lib bular, Ahmad Donishning “Navodir ul-Vaqoyi”, “Risolayi muxtasari az tarixi saltanati mang‘itiya”, Sadriddin Ayniyning “Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar”, “Esdaliklar”, Sadri Ziyoning “Navoduri Ziyoiya”asarlaridan.”[1]

Birinchi guruhdan S.Ayniyning ko‘p asarlari o‘rin oladi, bunga sabab, birinchidan adibning o‘sha davrda yashab ijod qilganligi bo‘lsa, ikkinchidan, uning o‘tmishni yozish uslubi va mahoratidir. Uning asarlari o‘quvchi tanlamaydi, har qanday qiziquvchi uchun foydalanish mumkin ekanligi bilan ajralib turadi. Uning asrlarini badiiy zavq olish uchun ham, yoki bo‘lmasa o‘tmish tarixni ilmiy-amaliy tadqiq qilish uchun ham o‘qish mumkin.

Mang‘itlar davridagi ijtimoiy tizim haqida gapirilganda, davlatda ijtimoiy tuzum vertikal ierarxiyaga asoslangan bo‘lib, buni manbalardagi ma’lumotlar tasdiqlaydi. Eng yuqorida amir va uning saroy atrofidagilar – vazirlar, inoqlar, amaldorlar turgan. Bu tabaqa davlat boshqaruvida va

moliyaviy resurslar taqsimotida ustun mavqega ega edi. Amirlikda amirning shaxsiga sig‘inish oliv darajada yetgan bo‘lib, amir qabulida bo‘lgan shaxs uning ko‘ziga tik qarashi va orqa o‘girishi umuman mumkun bo‘lmas. Xalq orasida amirning joslari va ayg‘ochlilarining juda ko‘pligi xalqning ehtiyyotkorlikda yashashi va siyosatdan umuman gap ochmasligiga sabab bo‘lgan. Umuman aytganda o‘zbek xalqining “devorning ham qulog‘i bor” iborasi ton ma’noda haqiqatga aylangan edi.

Amirlikda amir va saroy ayonlaridan keyin saidlar va xojalar, ya’ni payg‘ambar avlodlari hisoblangan dindor oqsuyaklar keladi[2]. Bu guruh jamiyatda muqaddaslik bilan bog‘langan va mustahkam ijtimoiy maqomga ega bo‘lgan. Saidlar tabaqasiga har qanday inson kirishi mumkin bo‘lmas - bu maqom faqat nasab orqali o‘tishi mumkin edi.

Sayyidlar: Payg‘ambar Muhammad (s.a.v.) avlodidan bo‘lgan shaxslar sifatida tanilgan. Ular Buxoro amirligi ijtimoiy tuzilmasida muqaddas nasab egalari sifatida katta ehtiromga sazovor bo‘lganlar. Ularning soliqdan ozod qilinishi, siyosiy arboblar bilan yaqin munosabatlari, jamoat hayotida ta’siri kuchli bo‘lishi ularning maqomini belgilagan.

Xo‘jalar: Ko‘pincha sufiylik tariqatlariga mansub, diniy ilmlarni chuqur egallagan shaxslar bo‘lib, ular ham nasab, ham ilm jihatidan obro‘li guruh hisoblangan. Ular Naqshbandiya, Qodiriya, Yasaviya kabi tariqatlar orqali diniy-ma’naviy hayotga ta’sir ko‘rsatgan. Ko‘pincha mudarris, shayx, peshvo sifatida faoliyat yuritishgan, ba’zilari esa siyosiy hayotga ham aralashgan.

Ra’iyat, ya’ni oddiy aholi – dehqonlar, hunarmandlar va savdogarlar jamiyatning mehnatkash, lekin imtiyozsiz tabaqasini tashkil etgan. Ular davlat soliq yukining asosiy qismini ko‘targan va jamiyat moddiy boyligini yaratuvchi kuch sifatida xizmat qilgan. Ular jamiyatning 90 foizidan ortig‘ini tashkil qilsada jamiyatdagi biror bir nufuzga ega bo‘lmasligi bilan xarakterlanadi.

Ijtimoiy adolatsizlikning yorqin ifodasi sifatida amirlik hududida qulchilik tizimi qisman saqlanganligi bilan ham ifodalash mumkun. Qullar asosan harbiy yurishlar orqali olib kelingan rus, eron, turkman millatlariga mansub shaxslar bo‘lib, bozorlarda sotilgan. Manbalarda ba’zi boy kishilar 40 ga yaqin qulga egalik qilgani qayd etiladi.

Buxoro amirligida Buxoro, Chorjo‘y, Qorako‘l, Vobkent , Qarshi, Vardanze, va G‘ijduvon shaharlarida ham qul bozorlari bo‘lgan. Qul bozorlarining eng kattasi va gavjumi Buxoroda bo‘lgan[3].

Amirlik aholisining mashg‘ulotlari.

Buxoro amirligida XIX asr oxirlarida aholining mehnat va hunar faoliyati haqida ko‘plab manbalar orqali habardor bo‘lishimiz mumkun. Ayniqsa, o‘sha davr tarixchisi va adibi Sadriddin Ayniy asarlari qimmatli manba sanaladi. Buxoroda bu davrga kelib ham, an’anaviy, o‘rta asrlardan

beri qo'llanib kelinayotgan texnika va texnologiyalardan foydalanilgan. Yozuvchi o'zining bolalik xotiralarida quyidagilarni eslab o'tadi: "Yerimiz ikki tanob edi, o'z ho'kizimiz yo'q edi. Otam birovlarning ho'kizlarini ishlatar edi. Oz yerga ega bo'lган qo'sh ho'kizli o'rtahol dehqonlar o'z ho'kizlarini ijaraga berar edilar. Ijara haqi arzon edi. Bir tanob yerni ikki marta haydash uchun bir kalla kunjara berish lozim edi. Bir kalla kunjara o'sha vaqtarda ikki tanga (30 tiyin) turar edi"[4].

Dehqonchilik texnikasida yer haydash vositasi omoch va ho'kiz bo'lib hisoblangan, tanqidan yiroq turgan holda shuni aytish kerakki omoch va ho'kizdan XX asr boshlarida ham ancha vaqt foydalanib kelingan. Qishloq xo'jaligi aholining asosiy mashg'uloti hisoblangan.

Texnika omoch ekanligi ma'lum, texnologiya-usullar qanday ekanligi haqida Ayniuning boshqa bir xotirasiga murojat qilamiz: "Qirov tushib ekinlarni sovuq urgandan keyin butun jo'xorilarni yig'ishtirib oldim. Ko'kboshlarini alohida ajratdim, yetilganlarini yanchishga tayyorlab qo'ydim. Uni dehqon bolalari bilan ot va ho'kiz topib, xo'p haydab, yanchdik"[5].

Buxoroda hunarmandchilikning ko'plab sohalari ma'lum bo'lган va bu sohalar ancha rivojlangan: "Bu paytda hunarmandchilik sohasida ishlab chiqarishning asosiy tarmoqlaridan biri gilam va namat tayyorlash bo'lган" [6].

Buxoroda aholi yashash joylari ham asosan ularning mehnat faoliyatiga ko'ra ajratilgan. Masalan amirlikning mashhur yozuvchisi Sadriddin Ayniuning "Sudxo'rnoing o'limi" asarida ko'p o'rnlarda ko'cha, guzar va mahallalarni qandaydir hunar nomi bilan atalganini ko'rsatadi: "Latifjon mahdum Buxorolik domla Abdushukur qozi kalonning ikkinchi o'g'li bo'lib, uning otasi va aka-ukalarining kasbi ohorchilik bo'lган. Abdushukur ham yoshligida bir necha vaqt shu kasbda shogirdlik qilgan"[7].

Bu davrda amirlik boshqa davlatlatlar bilan ham tashqi aloqalarni doimiy olib borgan. Ayniqsa amirlik tashqi siyosatida Rossiya va qo'shni davlatlarning o'rni muhum sanalgan. Xususan XIX asrning oxirida Buxoro amirligi Rossiya, Afg'oniston, Hindiston, eron va Kavkaz bilan savdo aloqalariga ega bo'lганligi. Buxoro, Chorjo'y, Karki, Termiz va Kogon (Yangi Buxoro)da Rossiya firmalarining idora va omborxonalari mavjud ekanligi tarixiy manbalarda saqlanib qolgan. Bu davrda Rossiya kapitali Buxoro amirligi huidiga tez sur'atlarda kirib kelayotgandi. Asosiy talabga ega bo'lган sohalar ancha ilgarilagan edi. Sadriddin Ayniuning ba'zi ma'lumotlari bunga misol bo'ladi. "Qiziltepadagi paxta tozalash zavodi Buxorolik bir boyning zavodi bo'lib, unda zavod xo'jayinining paxtasi va "chistachi" (paxta jalloblari) larning paxtasi tozlanar edi. Unda ishlovchilar ruslar, mahalliy millat kishilari barbarlar va pirsiyonlar bo'lib, jami taxminan 150 kishi edi"[8].

Amirlik davrida tashqi savdo aloqlari va hunarmandchilik qisman rivoj topgan bo‘lsada, bu aholining katta qismini tashkil etgan raiyat uchun unchalik ham ta’sir ko‘rsatmagan. Tashqi savdo nazorati va bozor maydonlari amirning yoki amir urug‘i zodagonlarining qo‘lida bo‘lgan. Mehnatkash aholi esa turli xil soliq va yig‘imlardan doimo qiyinchilik ko‘rgan.

Buxoroda aholining aksariyat qismi kambag‘al holatda ya’ni tirikchilikni ham zo‘rg‘a o‘tkaza oladigan darajada hayot kechirgan. Shunga yarasha turar-joylar ham oddiy, loydan qurilgan. Dera zalarga kamdan-kam hollarda shisha o‘rnatilgan. Taxta yoki qog‘oz bilan qoplangan. Shuning uchun xonalar qorong‘u bo‘lgan. Aholi yoritish vositasi sifatida asosan qora chiroqdan foydalangan. Xususan o‘z davrining mashhur yozuvchisi bo‘lgan Sadriddin Ayniyning “Estaliklar” asarida o‘z davrini quydagicha xotirlaydi. “Men qora chiroqni yoqib yog‘ochdan yasalgan chiroqpoya ustiga qo‘ydim”[9].

Ta’lim va madaniy hayot.

Buxoro amirligida ta’lim islomiy negizda tashkil etilgan bo‘lib, maktablarda bolalar savod chiqargan, madrasalarda esa oliy ta’lim berilgan. XIX asr boshlarida Buxoro shahrining o‘zida 100 dan ortiq madrasa faoliyat yuritgan va ular vaqf yerlari daromadi bilan ta’minlangan.

Ta’lim bosqichlarining tuzilishi:

1. Past qadam – Qur’on o‘qish, alifbo va savod chiqarish;
2. Miyona – grammatik va mantiqiy fanlar;
3. Peshqadam – tarix, fiqh, falsafa, falakiyot va geometriya.

Biroq madrasalarda diniy-axloqiy ta’lim ustuvor bo‘lib, dunyoviy fanlarga yetarlicha e’tibor berilmagan. Bu holat jamiyatning ratsional va ilmiy fikrlash darajasini cheklagan. Bu davrda diniy ulamaolar tomonidan din shaxs mafkurasiga to‘liq bo‘ysindirilib, aholini har qanday yangiliklarga intilishiga to‘siq qo‘yilgan. Amirlik davrida ijtimoiy-gumanitar fanlar qisman rivoji ko‘zga tashlangan bo‘lsada, lekin aniq va tabiiy fanlar diniy mutasiblikka uchrab, umuman rivojlanmagan va diniy mutasiblikning qurbaniga aylangan edi.

Diniy ulamolar tomonidan “vojib” amalidan juda keng foydalanilgan. Bu davrda “vojib” amali sunnat darajasidan farz darajasiga ko‘tarilgan bo‘lib, (ya’ni, Sunnat bu- Payg‘ambarimiz Muhammad(s.a.v) tomonidan aytilgan gaplar, qilingan ishlar va ko‘rsatmalar bo‘lib, bunda musulmon ahli bu ishni bajarsa savob olgan, bajarmasa gunoh sanalmaydigan amallar hisoblangan. Farz bu – olloh tomonidan buyurilgan va hech qanday muhokamasiz bajarilishi lozim bo‘lgan amallar. Bunda bajarilmagan ishlar gunoh sanalgan) raiyat ahli bajarishi majburiy ko‘rinish olgan. Eng yomon tomoni mang‘itlar davrida, hukumdor amir “amir ul-mo‘minin”bo‘lishi, (ya’ni bosh ulamo) uning dunyoviy va diniy hokimyatni boshqarishi

anglatgan. Natijada, Amir tomonidan chiqarilgan har qanday buyruq, “Amir amri vojib” sifatida talqin etilgan. Bularning barchasi bu davr ta’limida to‘liq aks etgan edi.

Adabiyot va tarixnavislik.

Mang‘itlar davridagi madaniy muhitda adabiyot va tarixnavislik muayyan darajada rivojlangan. Ahmad Donish, Mirzo Sodiq Munshiy, Xiromiy, Hoziq, Mujrim kabi ziylolar ijodida ijtimoiy tanqid, ta’lim-tarbiya va davlatchilik g‘oyalari yoritilgan. Xususan, Mirzo Sodiqning “Mang‘it hukmdorlari tarixi” asari muhim manba hisoblanadi.

Musiqiy madaniyat, xattotlik va me’morchilik ham rivojlangan. Buxoro, Qarshi va Samarqandda yangi madrasalar, masjidlar qurilib, urf-odatlarning madaniy jihatni namoyon bo‘lgan Urf-odat va ma’rosimlar.

Qishloq jamoalarida oqsoqollar jamiyati hal qiluvchi ijtimoiy kuch sifatida faoliyat ko‘rsatgan. Urf-odatlar, to‘y va aza marosimlari, diniy bayramlar ijtimoiy birlikni ta’minlovchi asosiy vosita bo‘lgan. Bu jamiyat orqali raiyatda axloqiy nazorat ta’minlangan va umumiy intizom shakllangan. Bu davrda aholi tomonidan urf-odatlar, to‘ylar va azalar o‘tkazish o‘ziga xos urfga aylanib, dabdababozlik, bir-birovidan o‘tish va o‘zini ko‘rsatish muhum sanalgan.

Amirlik davrida to‘y marosimlari ijtimoiy mavqega qarab turlicha sarf-xarajat talab qilgan. Boy zodagonlar, yer egalari va amaldorlar o‘z to‘ylarini dabdabali o‘tkazgan, buning uchun katta mablag‘ ajratgan. Ularning to‘yida ko‘plab mehmonlar chaqirilgan, turli taomlar, ayniqsa palov, qovurma, somsa, halva kabi milliy taomlar tayyorlangan, ayrim hollarda qoramollar so‘yilgan. Shuningdek, xizmatkorlar, oshpazlar, musiqachilar va hattoki professional raqqosalarga ham haq to‘langan[10].

Bu davr marosimlari haqida Turkiton jadidchiligining yirik nomoyondasi Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘zining oyna jurnalida quydagicha eslab o‘tgan:

“Bizni kemirguvchi illartlar deganda, zahmu maraznimi gumon etarsiz? Yoyinki sil va maxovliknimi dersiz? Yo‘q, undan ham yomonroq va undan ham jon azobi, bevoya, xonavayron va g‘arib etguvchi bir dard, biz-turkistoniyarlari shahri va qishloqi yoyinki yarim madaniy, yarim vahshiy sinflaimizgacha istilo etib, butun tirikligimizga so‘rilgan va bizni inqirozga va tahlikag‘a va jahannamg‘a yumalataturgan to‘y, azo isminda ikki qattol dushmani derman”

“To‘y, azada sarf bo‘ladur minglab tanga va bu miqdor bila necha faqir to‘ydurmoq mumkin. Ammo boylar obro‘ uchun, mullo va domlalar esa foyda uchun to‘ylarni dabdabaga aylantirurlar”[11]

Xulosa.

Mang‘itlar sulolasi hukmronligi ostidagi Buxoro amirligi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti qat’iy tabaqaviy shaklda, diniy mafkura va tarixiy-an‘anaviy qadriyatlar asosida shakllangan murakkab

tizimni tashkil qilgan. Ushbu davrda jamiyatda ijtimoiy harakatlanish imkoniyati deyarli mavjud bo‘lmagan — ra’iyat tabaqasi, ya’ni jamiyatning asosiy qatlami, siyosiy, iqtisodiy va madaniy imtiyozlardan chetda qolgan. Oliy tabaqalarning – amir, saroy ayonlari, sayyid va xo‘jalarning ustun mavqeい ularning tug‘ma maqomi, nasabiy afzallikkari va diniy huquqlari bilan mustahkamlangan.

Shu bilan birga, amirlilik jamiyatida urf-odatlar va diniy marosimlar, ayniqsa, to‘y va aza marosimlari nafaqat ijtimoiy tuzumni mustahkamlovchi omil, balki jamiyatdagi isrofgarchilik, tafovut va mutaassiblikni chuqurlashtiruvchi vosita sifatida ham faoliyat ko‘rsatgan. Mahmudxo‘ja Behbudiy kabi jadid ma’rifatparvarlari bu holatni xalq taraqqiyotiga to‘sinqilik qilayotgan illat sifatida ochiq tanqid qilganlar. To‘y va azalarning obro‘ orttirish vositasi sifatida ishlatalishi ijtimoiy tengsizlikni kuchaytirgan, kambag‘allar esa bu urfga amal qilish yo‘lida qarzga botgan.

Buxoro amirligining iqtisodiy hayotida dehqonchilik va hunarmandchilik asosiy mashg‘ulotlar bo‘lgan bo‘lsa-da, texnika va texnologiyada an’anaviylik saqlanib qolgan. Sadriddin Ayniyning asarlarida aks etganidek, bu holat ishlab chiqarish samaradorligining pastligi va mehnat vositalarining orqada qolganligini ko‘rsatadi.

Madaniy hayotda esa Ahmad Donish, Mirzo Sodiq Munshiy kabi ziyolilarning faoliyati orqali ijtimoiy tanqid va islohot g‘oyalari ilgari surilgan. Biroq diniy mafkura ustuvorligi tufayli ilm-fanning rivoji, ayniqsa dunyoviy fanlarga nisbatan qattiq to‘siqlar mavjud bo‘lgan.

Umuman olganda, Mang‘itlar davri jamiyatij timoiy adolatsizlik, diniy mutaassiblik va islohotlarga qarshilik bilan tavsiflanadi. Shu bilan birga, bu davrni manbashunoslik asosida o‘rganish orqali tariximizning murakkab ijtimoiy-siyosiy mexanizmlarini chuqur anglash mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Qodirov.I., Shirinova.F., “So‘ngi sulola taqdiri”. T.: “Muharrir” 2009. 4-5-betlar
 2. Rashidov. F., “Buxoro amirligi diniy-siyosiy hayoti”, Toshkent, 2011.
 3. Fayziyev T., “Buxoro xonligida qul savdosi”. “O‘zbekiston”1970
 4. Ayniy S., “Qisqacha tarjimai holim” T.: O‘zSSR Davlat badiiy adabiyot nashriyoti 1960. 14-bet
 5. Tillaboyev.S, Zamonov.A “O’zbekiston tarixi” . T.: “Sharq” 2014. 113-bet
 6. Tillaboyev.S, Zamonov.A “O’zbekiston tarixi”. T.: “Sharq” 2014. 113-bet
 7. S.Ayniy, “Esdaliklar” III qism T.:”Toshkent” badiiy adabiyot nashriyoti. 1965.
- 9-bet
8. S.Ayniy “Qisqacha tarjimai holim” T.: O‘zSSR Davlat badiiy adabiyot nashriyoti

1960. 81-82-betlar

9. Ayniy S., "Esdaliklar" III qism T.: "Toshkent" badiiy adabiyot nashriyoti. 1965.
10. Zohidov T. Buxoro amirligi tarixidan lavhalar. Toshkent: Fan, 1990, 123-bet.
11. Behbudiy M., Tanlangan asarlar, 1-jild, T.: Ma'naviyat, 2006, 115-bet.